



UDK: 378:004.06

**Dilnoza SHOKIROVA,**  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: shoxruxturdiyev77@gmail.com

*Qmii professori, p.f.d Z.E. Chorshanbiyev taqrizi asosida*

## THE THEORY OF SELF-DEVELOPMENT IN THE USE OF INNOVATIVE IDEAS AND TECHNOLOGIES BY PEDAGOGUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.

Annotation

This article reveals the theoretical aspects of self-development and improvement in order to use innovative ideas and technologies for current pedagogues in the organization of the modern educational process, as well as methods and ways to bring education to a new level by increasing student knowledge. have been thoroughly thought about. Also, the ways of improving traditional teaching methods with the help of modern methods in the educational process, the theoretical basis of combining traditional teaching methods with new modernization methods have been mentioned.

**Key words:** Innovative, pedagogical, knowledge, skills, improvement, technology, methods, competitive, Internet, modernization, education, visualization.

## ТЕОРИЯ САМОРАЗВИТИЯ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПЕДАГОГАМИ ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические аспекты саморазвития и совершенствования с целью использования инновационных идей и технологий современных педагогов в организации современного образовательного процесса, а также методы и способы вывода образования на новый уровень путем повышения обучаемости. знания были тщательно продуманы. Также были упомянуты пути совершенствования традиционных методов обучения с помощью современных методов в образовательном процессе, теоретические основы сочетания традиционных методов обучения с новыми методами модернизации.

**Ключевые слова:** Инновационные, педагогические, знания, умения, совершенствование, технологии, методы, конкурентоспособность, Интернет, модернизация, образование, визуализация.

## TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGLARNI INNOVATSION G'OYA VA TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda hozirgi pedagoglarni innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llashi uchun o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish nazariy jihatlarini ochib berilgan hamda shu orqali talabalar bilimini oshirish ta'limni yangi bosqichga olib chiqish usullari va yo'llari haqida atroflicha fikr yuritilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida zamonaviy usullar vositasida an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish yo'llari, an'anaviy o'qitish usullarini yangi modernizatsiya usullari bilan uyg'unlashtirish nazariy asoslanganligi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion, pedagogik, bilim, ko'nikma, takomillashtirish, texnologiya, usullar, raqobatbardosh, internet, modernizatsiya, ta'lim, vizualizatsiya.

**Kirish.** Yangilik kirituvchi yoki innovatsion g'oyaga ega bo'lgan muhandisning kasbiy faoliyati o'ziga xos bo'lganligi sababli, u tabiiy tadqiqot qilish, ularni tahlil qilish va ularni amalga oshirishda boshqalarga o'rnak hisoblanadi. Bu innovatsion g'oyaga ega bo'lgan muhandisning shakllantirish, alohida pedagoglarning ilg'or pedagogik tajribasiga tayanadi. O'qitish jarayonining xilma-xilligiga qaramay didaktik, dasturlashga asoslangan, muammoli, modulli va boshqa yetakchi innovatsion pedagogik tajribalar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion pedagogik yangilik, o'zgarish, degan ma'noni, innovatsion vosita va jarayon sifatida esa yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish tushuniladi.

Pedagogik faoliyatda turli xil o'qitish usullari mavjud, masalan, eng ko'p tarqalgan usul bu an'anaviy o'qitish usullaridir. An'anaviy darsga misol keltiraylik: "dars odatdagidek boshlandi: to'rt-besh talabadan o'tgan darsni aytib berishini so'raymiz, bu dars vaqtining yarmidan ko'pini oladi. Bitta talaba hisobot tayyorlasa, yana 20-25 talaba vaqtini

behuda o'tkazib yuboradi. Bunday usul qandaydir bir yoki ikki nafar talabani eshitish orqali yakun topadi va ko'pgina boshqa talabalar e'tibordan chetda qoladi va qolgan talabalar uchun dars zirikarli bo'lib qoladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raevlar innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashda innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, modul, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivojlantiruvchi, tabaqalash-tirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalarining mohiyati, nazariy asoslari hamda o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish, o'qitish samaradorligini oshirishdagi o'rni va roli haqida tadqiqot ishlarini olib borishgan[1].

Ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar fikriga ko'ra bu usullarni aslida individual mashg'ulotlarda qo'llash samarali deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqadiki individual ta'limning maqsadi o'quv jarayoni hamda talabalarning fikrlash

qobiliyatining rivojlanish darajasi xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish metodikasi va usullarini tanlash, samarali kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali tashkil qilish muhim sanaladi.

Ma'lumki, ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida barcha sohalarini samarali boshqarish va tashkil etish inson ongi va ijodiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Bu vazifa talabalarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning ijodiy va aqliy faolligini rivojlantirishdan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Bu yo'nalishlar mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim tizimida yillar davomida to'plangan ilg'or pedagogik tajribalar va bugungi kundagi innovatsion o'qitish usullaridan keng foydalanish orqali takomillashtirilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida zamonaviy usullar vositasida an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilmoqda. Masalan, o'qitishning katta qismi zamonaviy o'qitish texnologiyalari yoki ta'lim sohasida kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali olib borilayotgan bo'lsa-da, bularning barchasi an'anaviy o'qitish usullari va yangi modernizatsiya usullari uyg'unligini ko'rsatadi. Shu bois ta'limni talabalarining qobiliyati va qiziqishiga qarab individuallashtirish zarurati tug'iladi. Bugungi kunda sifatli ta'limni amalga oshirish pedagogdan ko'p narsani talab qiladi. Ammo u bu muammodan kompyuter dasturlari va turli pedagogik texnologiyalar yordamida chiqib keta oladi. Bu davrda o'qituvchining vazifasi talabalarga tayyor bilim berishdan tashqari, bilimlar bazasidan bilim olish yo'llarini o'rgatish va uni mustaqil ta'lim olish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

O'quv jarayonida e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan asosiy masalalardan biri bu darsliklar va o'quv dasturlari o'rta bilimli talabalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzilganligidir. Bunda o'zlashtiruvchi yomon bo'lgan talabalar o'quv materialining mazmunini o'zlashtira olmaydi, aksincha, yaxshi o'zlashtirgan talabalar uni tez o'zlashtirib, qolgan vaqtlarda bo'sh qoladilar. Agar o'qituvchi talabalarining kuchli va zaif tomonlarini to'g'ri aniqlab, tegishli uslubiy yordam ko'rsatsa, barcha talabalar yaxshi o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan ko'rinib turibdiki, pedagog qanchalik ko'p o'qisa, har bir dars haqida ko'proq fikr yuritadi va uni talabani xatti-harakati bilan solishtiradi hamda talabani tafakkurini kuzatish bilan birga ko'p bilim olishga o'rgatadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida savollar va javoblar qanchalik ko'p bo'lsa talabani fan mavzularini o'zlashtirishi oson bo'ladi[4].

An'anaviy va zamonaviy o'qitish usullarini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va dasturlaridan foydalanishda o'qituvchi va talabani mehnati bir-biridan mustaqil bo'lib, ular birgalikda ko'proq ishlarni amalga oshiradilar. Kompyuterda ishlash jarayonida talaba o'z oldiga shaxsiy maqsad qo'yadi va mustaqil ishlaydi. Bu vaqtda talabani kognitiv boshqaruv faoliyati yaqqol ko'rinadi[7]. Ta'lim jarayonida kompyuterlardan foydalanishga asoslangan zamonaviy o'qitish usullari, bir tomondan, o'quv ma'lumotlarini qayta ishlash, vizualizatsiya qilish va o'lchashga, ikkinchi tomondan, texnik yoki axborot vositalaridan maqsadli foydalanishga qaratilgan usul va vositalar to'plamidir. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan talabani rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarining bilim saviyasini oshirishda o'tgan mavzu bo'yicha olgan bilimlarini puxtalik bilan tekshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, har bir darsda zamonaviy talabalar asosida ta'limning yangi texnologik elementlaridan foydalanish samaralidir. Bunda o'qitish texnologiyasining hozirgi paytda asosiy besh darajasini qayd etish mumkin:

- ta'limiylik;
- algoritmik;
- evristik;
- ijodkorlik;
- innovatsion.

Hozirda zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogdan ilg'or fikrlay olish, faol va ko'p qirrali bo'lishni talab qiladi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yetuk, barkamol va raqobatbardosh, malakali mutaxassislarini talab qiladi. Malakali pedagog, bilimli mutaxassis bo'lish uchun har doimo o'z ustida ishlashi, ko'nikmalarini oshirib borishi, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirishi va uni mahorat bilan dars jarayoniga qo'llay olishi lozim[6].

Pedagogning ishi juda harakatchan, murakkab va ko'p qirraliligi bilan farqlanadi, chuqur va professional bilim va ko'nikmalarni taqozo etadi hamda pedagogning o'z-o'zini tarbiyalash doirasidan tashqarida shaxsiy va kasbiy rivojlanishi mumkin emas[5].

Pedagogning kasbiy faoliyatdagi ijodkorligi uning har tomonlama bilimi va kasbiy mahoratiga asoslanadi, yangi o'qitish usullarini o'zlashtirib, dars jarayonida qo'llashi bilan qiyoslanadi. O'z ustida ishlab, o'zini o'zi rivojlantiradigan pedagog innovator pedagogdir.

O'z-o'zini takomillashtirish – bu o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'rganish jarayonidir.

Pedagog o'z-o'zini tarbiyalash uchun quyidagi maqsadarni oldiga quyishi kerak:

-ta'lim va tarbiya usullarini takomillashtirish va kengaytirish maqsadida umumiy pedagogik va psixologik bilimlarni takomillashtirish va kengaytirish.

-o'z predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish.

-ilg'or pedagogik tajriba va pedagogika fanining yutuqlarini o'zlashtirish.

-o'qituvchining umumiy malakasi va bilim darajasini oshirish.

-uslubiy mavzu o'qituvchilarning ish rejasida ochib berilishi va boshqalar.

Pedagogning o'z-o'zini takomillashtirish bilan bog'liq omillar quyidagilardir:

- kundalik ma'lumotlar bilan ishlash; (Masalan, internet bilan ishlashi, tegishli adabiyotlar bilan ishlashi, oliy ta'limdagi yangi ma'lumotlarni tahlil qilish talabalarga ma'lumot izlashni va undan foydalanishni ularga o'rgatish va boshqalar.)

- ijodiy ilhomlanish;

- fanning tez rivojlanishi;

- ta'limdagi o'zgarishlar va uning rivojlanishi;

- raqobat (hamkorlar o'rtasidagi raqobat);

- jamoatchilikning munosabati, uning atrofidagi

odamlarning u haqidagi fikrlari;

- moddiy rag'batlantirish;

- qiziqish va hokozolar.

Pedagogning o'z-o'zini tarbiyalashi va takomillashuvini talab qiladigan asosiy yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- kasbiy (mavzu bo'yicha tayyorgarlik);

- psixologik-pedagogik (talabalar va ota-onalarga rahbarlik qilish);

- psixologik (tasvir, fikrlash, yetakchilik fazilatlarini);

- metodika (pedagogik texnologiyalar, o'qitish usullari, shakllari);

- yuridik;

- estetik;

- tarixiy;

- chet tillari;

- axborot va kompyuter texnologiyalari;

- qiziqishlar, sevimli mashg'ulotlar va hokozolar.

O'z-o'zini rivojlantirishning asosiy nuqtasi bu o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida pedagog ma'lumotlardan turli xil usullarda foydalanadi, ta'lim manbalaridan ma'lumot olib, olingan ma'lumotlardan darsda yoki amaliyotda foydalanishidir[8].

Yuqoridagolardan kelib chiqib olingan bilm manbalari shaxsiy va kasbiy o'sishga hissa qo'shadigan quyidagi bilim manbalariga bo'linadi.

O'z-o'zini tarbiyalash manbalari:

- seminarlar va konferensiyalar;
- mahorat darsi;
- tajriba almashish bo'yicha tadbirlar;
- malaka oshirish kurslari;
- ochiq darslarda qatnashish;
- ekskursiyalar, teatrlar, muzeylar, konsertlar, gazetalar,

jurnallar;

- adabiyot (uslubiy, ilmiy, badiiy);
- internet.

- pedagogning shaxsiy o'zini o'zi tarbiyalash rejasi.

O'z-o'zini rivojlantirish shakllarini ikkiga bo'lish mumkin:

-individual;

-guruh.

Pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismlari:

Aslida pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonidagi faoliyati bu o'qish, o'rganish, tadqiqot, tahlil, kuzatish va yozish ekanini ko'rish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Pedagogning kasbiy faoliyatida quyidagi jihatlarni qayd etish o'rinli deb hisoblaymiz:

birinchidan - yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim usullarini o'rganish va ulardan foydalanish;

ikkinchidan - hamkasblar darslarida qatnashish, tajriba almashish;

uchinchidan - o'z pedagogik ijodini tizimli ravishda tahlil qilish;

to'rtinchidan - zamonaviy psixologik-pedagogik sohadagi bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish;

beshinchidan - mamlakatimizdagi ta'lim sohasidagi siyosat, madaniyat, hamda iqtisodidagi yangiliklardan xabardor bilimni oshirish va boshqalar.

#### ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
2. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metedik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
3. Турдиев, Ш. П. (2019). Таълим жараёнини тизимли ёндашув асосида педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этиш. Современное образование (Узбекистан), (12 (85)), 31-36.
4. Shadie R. D., Turdiyev S. H. Basic didactic principles of building an integrated system of training to innovation engineering //Знание. – 2016. – №. 4-4. – С. 87-89.
5. Турдиев Ш. П., Келдиёрова М. Г. Личные и профессиональные особенности учителя //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 6-1 (151). – С. 67-72.
6. Турдиев, Ш. П. "STEAM фанлар таълими ва интеграциясини юзага келиши модели." Academic research in educational sciences 3.4 (2022): 571-575.
7. Turdiev, Shokhrukh R. "Forming Innovative Abilities of Students in Engineering and Research." Eastern European Scientific Journal 1 (2017).
8. Турдиев Ш.П.Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference 2021/11/11 P.181-183 Издатель Berlin.